

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE’S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAHTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra’noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

Muratova Shohista Nimatullayevna

Bojxona instituti kafedra boshlig‘i, i.f.d., professor

ORCID 0000-0002-8133-9094

E-mail: shohista11@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan biznes subyektlarida barqaror rivojlanish uchun uchun yuqori texnologiyali tovarlarning sotish hajmini oshirish zarurati sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi tavsiflangan. Bu borada “yashil” eksport tushunchasiga aniqlik kiritilib, uning iqtisodiy va bojxona jihatlarini ko‘rib chiqilgan, shuningdek, uni milliy iqtisodiyotda rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, “yashil” o‘sish, eksport salohiyati, “yashil” sanoat siyosati, “yashil” eksport, “yashil bojxona”, “yashil” tovar.

Аннотация

В статье описывается существенное влияние необходимости увеличения объемов продаж высокотехнологичных товаров на устойчивое развитие в хозяйствующих субъектах, специализирующихся на промышленном производстве. В этой связи уточняется понятие «зеленого» экспорта, рассматриваются его экономические и таможенные аспекты, а также выделяются перспективы его развития в национальной экономике.

Ключевые слова: зеленые технологии, устойчивое развитие, «зеленый» рост, экспортный потенциал, «зеленая» промышленная политика, «зеленый» экспорт, «зеленая таможня», «зеленые» товары.

Abstract

The article describes the significant impact of the need to increase sales of high-tech goods for sustainable development in business entities specializing in industrial production. In this regard, the concept of “green” export is clarified, its economic and customs aspects are considered, and the prospects for its development in the national economy are highlighted.

Keywords: green technologies, sustainable development, “green” growth, export potential, “green” industrial policy, “green” export, “green customs”, “green” goods.

KIRISH

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, mazkur hujjatda respublikaning eksport salohiyatini yanada oshirish va 2026-yilda respublika eksporti hajmini 30 mlrd. AQSh dollariga yetkazish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, eksport tuzilmasida tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 3,3 barobar oshirish, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish vazifasi qo‘yildi [1].

Hamkor davlatlarning kuchli eksport pozitsiyalariga qaramay, mamlakatimizning xalqaro ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalashuvining salohiyati mamlakatimiz

bilan xorijiy davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikka asoslanganligidir. Xorijiy mamlakatlarda talab yuqori bo'lgan sanoat tovarlari, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatli tovarlar bozorini rivojlantirish vazifasi milliy iqtisodiyot uchun dolzarbdir, chunki bu uning barqaror o'sishini ta'minlash va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish sharti hisoblanadi.

Yashil texnologiyalardan foydalanish va mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi o'rtasidagi munosabatlar olimlar tomonidan uzoq vaqtdan beri o'rganilib kelinmoqda. "Yashil" iqtisodiyot Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Yevropa Ittifoqi (keyingi o'rinlarda – YeI) mamlakatlarida makroiqtisodiy va iqtisodiyot tarmoqlari miqyosida tarqalgan [2]. Yida "yashil" o'sish strategiyasi qabul qilingan bo'lib, mamlakatimizda ham Yevropa tajribasi keng moslashtirilmoqda. Barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish vositalari milliy loyihalarga, sanoat tarmoqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalariga kiritilmoqda. Sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan biznes subyektlarida barqaror rivojlanish uchun tarmoq strategiyalari tasdiqlangan. "Yashil" o'sish va iqtisodiyotni yashillantirish yondashuvining qoidalarini ishlab chiqishda iqtisodiy xavfsizlik va "yashil" iqtisodiyotni uyg'unlashtirish bo'yicha mualliflik talqini quyidagi 1-rasmda keltirilmoqda.

Element	Ekologik	Iqtisodiy	Ijtimoiy
Resurs	Tabiiy kapital	Jismoniy kapital	Inson kapitali
Maqsad	Ekologik xavfsizlik, resurstejamkorlik va atrof muhitni muhofaza qilish	Tejamkor ishlab chiqarishni, biznesning uzluksizligini, samarali muvofiqlik amaliyotini	Qashshoqlikka barham berish va mas'uliyatli iste'mol
Mexanizm	Barqaror rivojlanish-ni baholash va nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun yangi "yashil" biznes modellari va ESG-mezonlarni shakllantirish	Biznes jarayonlarini ekologiyalashtirish, ishlab chiqarish va iste'molning antropogen yukini kamaytirishga qaratilgan sifat menejmenti tizimlari (ISO)ni standartlashtirish	Jamiyatning ekologik madaniyatini rivojlantirish, aholining zaif qatlamlarini aniqlash va ekologik tengsizlik va tabiiy resurslardan foydalanishdagi nomutano-siblikni kamaytiradigan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish

1-rasm. Barqaror rivojlanish sharoitida iqtisodiy xavfsizlik va "yashil" iqtisodiyotni uyg'unlashtirish elementlari¹

YI davlatlaridan O'zbekiston Respublikasining muhim savdo hamkorlari Belgiya, Bolgariya, Germaniya, Gretsiya, Kipr, Fransiya, Chexiya va Estoniya hisoblanadi [3].

¹ Muallif tomonidan Беляевская-Плотник Л.А. Эволюция методологических подходов к оценке состояния и динамики уровня экономической безопасности // Экономическая безопасность, 2020. – Том 3. №4. – С.443-456. materialini asosida shakllantirildi.

Mamlakatimiz uchun YeIga eksportni qazib olish sanoatining tovar guruhlaridan qayta ishlash sanoati, shu jumladan “yashil” texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan tovar guruhlariga yo‘naltirish alohida ahamiyatga ega. Bu holat “toza” aylanma iqtisodiyotga o‘tish, biologik xilma-xillikni saqlash va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishni o‘z ichiga olgan Yevropa “Yashil bitim” shartlari bilan belgilanadi [4].

Bugungi kunda YeI o‘zini xalqaro iqlim siyosatida yetakchi sifatida ko‘rsatib, atrof-muhitni xalqaro savdoda uchinchi davlatlar bilan munosabatlarning muhim tamoyillaridan biri sifatida belgilamoqda va Parij bitimini xalqaro savdo shartnomalarining asosiga aylantirish taklif etilmoqda. Bu YeIning o‘z hududiga import qilinadigan mahsulotlarga qo‘yiladigan talablarini oshirishga, shuningdek, “jigarrang” texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan xom ashyo, tovarlarning ayrim turlarini import qilish hajmini kamaytirishga yoki import qilishdan bosh tortishga olib keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

A.Goldar, J.Bhanot, K.Shimpo ta’kidlashlaricha, “yashil” eksport deganda jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lgan va “ekologik” tozalik talablariga javob beradigan tovarlar tushuniladi (eksport paytida CO₂ chiqindilarining intensivligi) [5].

Tadqiqotchilar – M.Huberty, G.Zachmann “yashil” sanoat siyosatining “yashil” eksport raqobatbardoshligiga ta’sirini tahlil qilganlar [6].

Tarixiy-falsafiy tafakkur namunalarini o‘rganish natijalari ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish darajasiga, mahsulot turiga, sanoat turiga, mintqa turiga va uning geografik joylashuviga qarab “yashil” eksportni rivojlantirish omillarining farqlanishidan dalolat beradi. N.Bıçakcıoğlu-Peynirci, M.Tanyeri rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” eksportning biznes-strategiyasini o‘rganish tashkiliy resurslar, korxona imkoniyatlari va manfaatdor tomonlarning eksport bozoridagi sezilarli bosimi va biznesning moliyaviy ko‘rsatkichlari ijobiy ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini berishini ta’kidlaydilar [7].

Ba’zi mualliflar xalqaro “yashil” trendlarni mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga yashirin tahdidlar deb hisoblashadi. Ular “yashil” texnologiyalarni joriy etishda oqilona mo‘tadillikka chaqirmoqda, aks holda bu jarayon o‘tgan asrdagi sovuq urush davridagi qurollanish poygasiga o‘xshash mamlakatlar o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin. Eksportni tashqi savdo faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida hisobga olgan holda, tadqiqotimizning terminologik sohasida iqtisodiy, bojxona va logistika jihatlarini ajratib ko‘rsatishni taklif qilamiz.

Iqtisodiy nuqtai nazardan eksport – bu tovarni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona hududidan tashqariga olib chiqishdir. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan va amalda bojxona hududidan olib chiqilgan tovar O‘zbekiston tovari maqomini yo‘qotadi [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotimiz davomida xorijiy mamlakatlar hamda respublikamizda import o‘rnini bosishni rag‘batlantirish amaliyoti mahalliy tovarlar ishlab chiqarishni jadal

rivojlantirish va import o'rnini bosish imkoniyatiga erishish jihatdan monografik tahlil qilindi. Rivojlangan davlatlarda import o'rnini bosish amaliyotini yoritishda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, deduksiya va induksiyaning ilmiy usullari, shuningdek, normativ-huquqiy, empirik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun eksport bosqichlaridan biri sifatida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalardan foydalanmagan holda mahsulot ishlab chiqarishni ko'rib chiqamiz. Bu import qilinadigan mahsulotlar uchun xalqaro standartlarning (YeI mamlakatlarida) qat'iyalashtirilishi bilan tushuntiriladi. Unga ko'ra yetkazib beruvchi tovarlarni ishlab chiqarish, saqlash va tashish uchun ishlatiladigan texnologiyalarni ko'rsatishi shart.

Bojxona ishida eksport – O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy bo'lishi uchun olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan tartibdir. Logistika tovarlarni bir mamlakatdan boshqasiga eksport qilishda yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Yevropa "yashil" paktining qabul qilinishi eksportni amalga oshirishning har bir bosqichida "yashil" texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. "Yashil" eksport deganda, tovarlarni ishlab chiqarish, ularni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish va chet davlatga eksport qilish va sotish maqsadida logistika bo'yicha ekologik toza texnologiyalarga asoslangan jarayonni tushunamiz. Ya'ni, bu jarayon quyidagi 5 bosqichdan iborat bo'ladi:

1. YeI bozorini tanlash.
2. YeI talablariga muvofiq ishlab chiqarish.
3. Bojxona rasmiylashtiruvi.
4. Yetkazib berish / logistika.
5. To'lov.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq, eksportning tarkibiga tovarlarni chet davlatga chiqarish va bojxona rasmiylashtiruvi kiradi. Uning ta'rifida ishlab chiqarish bosqichi hisobga olinmaydi. Bizning fikrimizcha, import qiluvchi mamlakatlar (YeI) tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llaniladigan texnologiyalarga yuqori ekologik talablar qo'yadigan sharoitda eksport modelida tovarlarni ishlab chiqarish bosqichida "yashil" texnologiyalardan foydalanishga e'tibor berish muhimdir. "Yashil" eksportning rivojlanish darajasi uning belgilangan bosqichlarida ekologik texnologiyalardan foydalanishning sinergik samarasidir. Ishlab chiqarish, logistika va bojxona rasmiylashtiruvida "yashil" texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish darajasi har xil. Logistikada "yashil" transformatsiyalar samarali va yetarlicha rivojlangan deb baholanadi [9].

Bojxonadagi "yashil" texnologiyalar quyidagilardir:

- Elektron deklaratsiya tizimi.
- Sun'iy intellektni joriy etish.
- Zamonaviy tekshirish hamda skrining komplekslari va boshqalar.

Bojxona amaliyotiga "yashil" texnologiyalarni joriy etishning asosiy omillari – texnologiyalarning rivojlanish darajasi va davlat byudjetidan moliyalashtirish hisoblanadi. Ekspertlar (tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, bojxona

mutaxassislar) [10] fikricha, bojxona xizmati faoliyatida “yashil” texnologiyalar ancha samarali hisoblanadi. “Yashil” eksport triadasidagi ahamiyati jihatidan ishlab chiqarish sohasi eksport obyektni yaratish, foydani ko‘paytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarishga qo‘yiladigan xalqaro talablarning kuchaytirilishi tufayli alohida o‘rin tutadi. “Yashil” sanoat siyosati doirasida tarmoqlarni “yashillashtirish” uchun mutaxassislar [11] qisqa muddatli foyda keltiradigan chora-tadbirlar (energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarni boshqarish, ixtiyoriy barqarorlik standartlari, eko-yorliqlarni joriy etish va boshqalar)ni taklif qiladilar. Taklif etilayotgan model eksport qilinadigan tovarning butun hayotiy siklini qamrab oladi va “yashil” eksportni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda tizimli yondashuvdan foydalanishga yordam beradi.

Ma’lumki, Jahon bojxona tashkiloti kengashining sessiyasida “yashil bojxona” strategik rejaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilingan va, shu bois, atrof-muhitni muhofaza qilishda bojxonaning o‘rni to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va bu borada bojxona xizmatining istiqbolini belgilash maqsadida bir qator manfaatdor tomonlar ishtirokida 2022-yil iyun oyida Jahon bojxona tashkiloti “Yashil bojxona” bo‘yicha Global konferensiya”ni tashkil qildi.

Konferensiyaning muhokama maydonchalarida sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi va uning bojxonaga ta’siri muhokama qilindi. Sirkulyar iqtisodiyot bilan bog‘liq savdoning yangi tendensiyalari (tovarlarni qayta ishlash, qayta ishlatish, ta’mirlash va qayta tiklash), shuningdek sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning asosiy muammolari, shu jumladan savdoning ekologik “izi”ni kuzatish va monitoring qilish uchun ma’lumotlarning yetishmasligi ko‘rib chiqildi. Bojxona forumi ishtirokchilari chiqindixonaga yo‘naltirilgan xavfli chiqindilar ko‘pincha qayta ishlash uchun mo‘ljallangan tovarlar ko‘rinishida yashirin holda olib o‘tilishi sababli, qayta ishlashga mo‘ljallangan tovarlarni qanday aniqlash mumkinligi haqidagi savolni ko‘tardilar. Yog‘och savdosiga bag‘ishlangan qo‘shimcha sessiyada mutaxassislar o‘rmonlarning kesilishiga qarshi kurashishda bojxona organlarining rolini alohida ta’kidladilar. Mutaxassislar bojxona organlarini savdo, ekologiya va boshqa tegishli davlat organlari hamda biznes bilan ochiq hamkorlikka jalb etish zarurligini ta’kidladilar. Ular ekologik xavflarni boshqarish uchun texnologiya va innovatsiyalardan foydalanishning ba’zi misollarini ko‘rsatdilar [12].

Hozirda “yashil” kompaniyalar reytingida jahon yetakchilari IT-texnologiyalari, kompyuter texnikasi ishlab chiqaruvchilari, moliyaviy korporatsiyalar vakillari hisoblanadi. “Yashil” texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillari jamiyat tomonidan “yashil” tovarlarga talabning ahamiyatsizligi, qayta tiklanishi uchun katta investitsiyalarni talab qiluvchi resursni ko‘p talab qiluvchi tarmoqlarning ustunligidir.

Aytish joizki, 2021-2024-yillar kesimida eksport tuzilmasi tahlil qilinganda, sanoat tovarlari ulushi taxminan 28-30%ni tashkil etdi (1-jadval).

Sanoat tovarlari YeI mamlakatlariga eksport qilinadigan tovarlar turlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasidan sanoat tovarlari eksportining kichik hajmlariga

qaramay, yuqori texnologiyali tovarlarning ayrim guruhlari bugungi kunda muvaffaqiyatli sotilmoqda va ular YeI mamlakatlarida yuqori talabga ega.

Bizning fikrimizcha, barqaror rivojlanish tamoyillarini qoʻllagan holda Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” eksportini rivojlantirish istiqbollari belgilash vaqti keldi. Mineral yoqilgʻi, paxta-trikotaj mahsulotlari yetkazib berilayotgan yuqori darajadagi ekologik toza mahsulotlardan biri boʻlib, mazkur tarmoqlardagi koʻplab korxonalar xorijiy sarmoya ishtirokida ishlayotgani va eksportga yoʻnaltirilganligi sababli ularda ishlab chiqarishga “yashil” texnologiyalarni joriy etish istagi yuqori.

Gʻarb davlatlari yanada samarali quyosh va yonilgʻi elementlari, ekologik toza akkumulyatorlarni yaratish maqsadida “yashil” nanotexnologiyalarni rivojlantirmoqda. Energiya bilan bogʻliq eng ilgʻor nanotexnologiya tashabbuslari materiallar hajmini va texnologik jarayonlar tezligini kamaytirish, energiyani tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalarining ishlash muddatini uzaytirish orqali ishlab chiqarishdagi oʻzgarishlardir. “Yashil” nanotexnologiyalar jamiyatda suvni tozalash sohasida ham keng talabga ega [13].

1-jadval

2021-2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi eksporti tarkibi, mln. AQSh dollari¹

Tovar toifalarining nomi	2021	2022	2023	2024
Jami:	16 662,7	19 732,5	24 869,5	26 948,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	1131,2	1307,7	1307,4	1687,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	4333,1	4383,5	4051,5	4200,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	693,6	973,7	1305,2	1202,2
Turli xil tayyor buyumlar	785,6	1106,1	1195,6	1105,7
Boshqa tovarlar	4303,9	4132,3	8192,6	7555,1
Xizmatlar	2581,7	4456,7	5640,4	7204,4
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1371,8	1631,5	1777,6	2175,2
Ichimliklar va tamaki	36	111	123	138,5
Nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilgʻidan tashqari	509,5	393,6	321,4	320,6
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar	914,8	1215,2	940,6	1315
Hayvonlar va oʻsimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	1,5	21,2	14,2	43,5

Elektromobillar – istiqbolli mahalliy eksport tovari hisoblanadi. Ulardan foydalanish global iqtisodiyot uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu

¹ Muallif ishlanmasi

transport turi uchun akkumulyatorlar ishlab chiqarish energiya va uglerodni talab qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, litiyli akkumulyatorlarning narxi va ishlab chiqarish hajmi o'sishda davom etadi. Qayta zaryadlanuvchi akkumulyatorlar litiydan global foydalanishning yarmini va kobaltdan 40%ni tashkil qiladi; ammo, uning katta qismi maishiy elektronika va faqat kichik qismi elektroavtomobil akkumulyatorlarida qo'llaniladi. Yevropada elektromobillar sotuvining o'sishi tufayli vaziyat o'zgarishi mumkin. 2030-yilgacha bo'lgan davrda ularni ishlab chiqarish hajmi 25 baravar oshadi, litiy va kobaltga bo'lgan talab keskin oshadi [14]. O'zbekiston Respublikasining elektromobillar uchun akkumulyatorlar, akkumulyatorlarni zaryadlovchi infratuzilma elementlari va boshqalarni ishlab chiqarish hamda eksport qilishdagi raqobatdosh ustunliklarini baholash bu sohadagi mutaxassislarni qiziqtirishi kerak.

Ushbu tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining maqsadli bozor – YeI mamlakatlariga “yashil” eksportni rivojlantirishning asosiy muammolari aniqlandi:

1. “Yashil” texnologiyalarga investitsiyalar yetarli emas, bu esa kichik va o'rta korxonalarni qayta jihozlashni qiyinlashtiradi. Bugungi kunda “yashil” eksport yirik biznesning imtiyozidir.

2. Mahalliy iste'molchilar tomonidan ekologik toza mahsulotlarga talabning pastligi.

3. Ishbilarmonlik uchun yetarli darajada qulay axborot va biznes platformasining yo'qligi.

4. “Yashil” eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun noqulay sharoitlar. Bevosita “gorizontal sanoat siyosati” zarur [15].

5. Asosiy maqsad yirik kompaniyalar emas, balki kichik va o'rta korxonalardir.

“Yashil” eksport tashqi iqtisodiy faoliyatning ancha yosh yo'nalishi bo'lgani uchun uni tahlil qilish, tashqi va ichki tahdidlarni, rivojlanish istiqbollarini aniqlash zarurati tug'iladi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolardan kelib chiqib, tadqiqotimiz davomida O'zbekiston Respublikasining YeI mamlakatlariga “yashil” eksportni amalga oshirishning SWOT-tahlili o'tkazildi. “Yashil” eksportning rivojlanishiga muammoning ekologik jihatini aks ettiruvchi umumiy omillar ham, o'ziga xos omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalari asosida “yashil” eksportni rivojlantirishning ichki resurslari va zaif tomonlari yig'indisidan kelib chiqib, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik omillar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan omilni ajratib ko'rsatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida “yashil” eksportni shakllantirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishning hozirgi bosqichida ushbu sohani rivojlantirish tashabbusi va rag'batlantirishning asosiy yuki davlat zimmasiga yuklatilgan.

Mutaxassislarning fikricha, birinchi navbatda, transport vositalari va qurilish materiallari samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar ishlab chiqiladi. Nano-, bio- va axborot texnologiyalari, energiya saqlash qurilmalarini yaratish istiqbollidir, shuningdek mashinasozlik va agrosanoat mahsulotlariga ham talab yuqori

bo'lad. Shu bois, bu sohalar milliy iqtisodiyot va "yashil" eksportni rivojlantirish uchun istiqbolli hisoblanadi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida "yashil" texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan mahsulotlar ishlab chiqarish siklini qayta yaratish zarur: xom ashyoni ishlab chiqarish, ekologik toza transport, "yashil" energiyadan foydalanish, "yashil" energiyadan foydalanishning shaffofligini ta'minlash.

Shunday qilib, tadqiqotimizda taklif etilayotgan eksport modeli tashqi savdo uchun mo'ljallangan tovarning to'liq hayot siklini qamrab oladi. Bu "yashil" eksportni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning tizimlilikini ta'minlaydi. Yel mamlakatlarida "siklik iqtisodiyot" hamda chiqindisiz ishlab chiqarish rivojlangan va joriy qilinmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz tashqi savdosida "yashil" eksport ustuvorligiga erishish uchun milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini – texnologik, ta'lim, iqtisodiy va boshqalarni tarkibiy o'zgartirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Houghton J.T., Ding Y., Griggs D.J. et al. (eds.). Climate Change 2001: The Scientific Basis. Contribution of Working Group I to the Third Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 881 p. <https://doi.org/10.1093/ije/dyg059>
3. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
4. A European Green Deal [Электрон манба] // European commission. URL: https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en
5. Goldar A., Bhanot J., Shimp K. Prioritizing Towards a Green Export Portfolio for India: an Environmental Input – Output Approach // Energy Policy. 2011. Vol. 39, iss. 11. P. 7036–7048. URL: <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2011.08.008>
6. Huberty M., Zachmann G. Green Exports and the Global Product Space: Prospects for EU Industrial Policy. – Brussels, 2011. – 30 p.
7. Bıçakcıoğlu-Peynirci N., Tanyeri M. Stakeholder and Resource-Based antecedents and Performance Outcomes of Green Export Business Strategy: Insights from an Emerging Economy // International Journal of Emerging Markets, 2020. – P.1-46. URL: <https://doi.org/10.1108/ijoem-03-2020-0245>.
8. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi [Elektron manba] // URL: <https://lex.uz/docs/2876352>
9. Ларин А.Н., Ларина И.В. «Зеленая» логистика – современная технология перевозочного процесса // Инновационная экономика и общество, 2018. – №4 (22). – С.47-53.
10. Якубов Р. Автоматизация – залог эффективной работы // Таможня, 2021. – №1 (450). – С.20-23.
11. Зеленая экономика и международная торговля: на пути к устойчивому развитию / В.Ю.Саламатов [и др.]. – М., 2020. – 48 с.

12. <https://rocb-europe.org/ru/uspeshnoe-zavershenie-vsemirnoy-konferentsii-zelenaya-tamozhnya> [Elektron manba] // Yevropa mintaqasi Jahon bojxona tashkiloti uchun salohiyat yaratish bo'yicha mintaqaviy byuro sayti.
13. Qamar M.Z., Noor M., Dr. Wahid Ali, Qamar M.O. Green Technology and its Implications Worldwide [Elektron manba] // The Inquisitive Meridian, 2020. – Vol. 3, iss. 1. URL: <https://www.researchgate.net/publication/350443477>
14. Berggren C., Kageson P. Speeding up European Electro-Mobility – How to Electrify Half of New Car Sales by 2030. Report for Transport and Environment. — Stockholm, 2017. – 82 p.
15. Кузнецова Г., Цедилин Л. Стимулирование несырьевого экспорта: международный опыт и российская практика // Мировая экономика и международные отношения, 2018. – №5. – С.72-79. URL: <https://doi.org/10.20542/0131-2227-2018-62-5-72-79>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**